

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK AGRONOMLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar institute
O‘zbek tili, pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası mudiri, p.f.f.d, (PhD)
Alijonova Maxbuba Rustamjonovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada agronomning kasbiy kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri — kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonida masofaviy ta‘lim, onlayn kurslar hamda innovatsion pedagogik metodlardan foydalanish orqali agronomlar uchun yangi o‘qitish usullarini ishlab chiqish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy bilim, kompetensiya, pedagogik metodlar, zamonaviy texnika va o‘z-o‘zini anglash, ijtimoiy muhit

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ АГРОНОМОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологии
Заведующая кафедрой узбекского языка, педагогики и
физической культуры, кандидат педагогических наук (PhD)
Алиджонова Махбуба Рустамжоновна

Аннотация: В статье рассматривается развитие новых методов обучения агрономов, включающих дистанционное обучение, онлайн-курсы и инновационные педагогические технологии, направленных на формирование профессиональных знаний и практических навыков, которые являются одними из ключевых компонентов профессиональной компетентности агронома.

Ключевые слова: профессиональные знания, компетентность, педагогические методы, современные технологии и самосознание, социальная среда.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE AGRONOMISTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Head of the Department of Uzbek Language, Pedagogy and Physical Education,

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Alijonova Makhbuba Rustamjonovna

Annotation: The article discusses the development of new methods for training agronomists, including distance learning, online courses, and innovative pedagogical technologies, aimed at forming professional knowledge and practical skills, which are among the key components of an agronomist's professional competence.

Keywords: professional knowledge, competence, pedagogical methods, modern technologies and self-awareness, social environment.

Jahon miqyosida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy rivojlanishining jadallashuvi, fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun ijtimoiy faol fuqarolar hamda raqobatbardosh, yuqori saviyali mutaxassislarni tayyorlash zarurati dolzarb ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli qishloq xo'jaligini tashkil etish va undan foydalanishda bo'lajak mutaxassislarning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish, aqlli qishloq xo'jaligi texnologiyalaridan foydalanish ahamiyat kasb etadi.

Jaxonda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, shu jumladan distansion ta'lim va onlayn kurslar va innovatsion pedagogik metodlar agronomlar uchun yangicha o'qish usullarini ishlab chiqishni va kasbiy kompetentliklarni rivojlantirishni talab qilmoqda. integrativ yondashuv nazariy va amaliy bilimlarni muvaffaqiyatli birlashtirishga yordam beradi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi ta'limi va ilm-fanini yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari etib sohada innovatsion resurslar va tejamkor texnologiyalarni qo'llash, raqamlashtirilgan agrotexnologiyalarni joriy qilish bo'yicha zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. “Qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarini oliy ma’lumotli yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida qishloq va suv xo‘jaligi sohasidagi oliy ta’lim muassasalari pedagog-kadrlarini ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarini tanlash va shakllantirishga jalb etish, innovatsion loyihalarida ishtirok etishlari muhim vazifa sifatida belgilangan. Agronomlarning innovatsion usullari, o‘zgaruvchan klimat sharoiti va resurslardan samarali foydalanish talablarining oshishi agronomlarning yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Bu, o‘zaro integratsiyalashgan ilmiy va amaliy yondashuvlar asosida mutaxassislarning tayyorgarligini yaxshilashga ko‘maklashadi.

Agronomning kompetensiyasining eng zarur komponentlaridan biri – kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmadir. Agrar fanlar asoslarini bilish va bu bo‘yicha chuqur bilim, iqlim va tuproq sharoitlarini tahlil qilish qobiliyati va ularga mos texnologiyalarni tanlash lozim. Kompetensiyaning kasbiy, maxsus, ijtimoiy, umummadaniy, shaxsiy va individual turlari mavjud bo‘lib ular bir-biri bilan uzviy aloqadorlikdadir. Kompetensiyaning ko‘p qirrali va xilma-xilligi ekanligi shaxsining kasbiy faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quv-biluv qobiliyati, ijtimoiy faollik, axborot mo‘lligi, kommunikativlik yoki nizoga moyillik kabi jihatlar agronom kompetensiyasining muhim mezonlaridir. Kompetensiya (lot. *Competo* erishyapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma’nolarni anglatadi. Kompetensiya (lot. *Competere* layoqatli, munosib bo‘lmoq) shaxsning biror bir sohadan xabardorlik, shu sohani bilish darajasi.

Kompetentlik ma’lum holat xususida to‘g‘ri mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo‘lish, dalil isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo‘lib, ma’lum sohadagi bilim, ko‘nikma va tajribani mujassamlashtirishdir. Kompetentlik insonga muayyan masalalarda fikr bildirishi, ma’lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki mustaqil ravishda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Oliy ma’lumotli mutaxassis shaxsiga va ularning faoliyatiga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar asosida ta’limni modernizatsiya qilish, yangilash hamda ta’lim

mazmunini izchil rivojlantirib borish bilan bir qatorda, bo'lajak mutaxassislarga belgilangan malakaviy talablarni ham shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq izchil takomillashtirib borish zarurati mavjud.

Shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda hodimning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

So'nggi yillarda etakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va Bo'lajak hodimlarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izoxli lug'ati. - Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. - 44 b.
2. Ahmedova N. "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasii olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2020 yil. 54 bet.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 315 b]
4. Urazova M. Bo'lajak kasbiy ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish. 13.00.05 – Kasbiy ta'lim nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari) ixtisosligi bo'yicha yozilgan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2015. 80 b.
5. Xodjaboev A.R. Учебно-методический комплекс подготовки учителей трудового обучения. Метод. реком. – Т.: УЗНИИПИ, 2009. - 93 с.
6. Djuraev R.X., Tolipov O'.Q., Safarova R.G'., To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug'ati / R.X.Djuraev tahriri ostida. – T.: "Fan", 2008. –58-b.